

HUQUQ SOHASIDA ILMIY TADQIQOT NATIJALARINI NORMATIV-HUQUQIY HUIJATLARGA TATBIQ ETISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI

Zubarjonov Odilbek G‘ayratjon o‘g‘li
Ilmiy rahbar: yu.f.d (PhD) I.X. Atamirzayev
Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti
1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986293>

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquq sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot natijalarini normativ-huquqiy hujjatlar mazmuniga samarali joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Innovatsion mexanizmlar orqali qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirish, ilmiy asoslangan yondashuvlarni huquqiy tartibga solish tizimiga integratsiya qilish hamda davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish yo‘llari yoritiladi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar va amaliy huquqiy faoliyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytirishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: huquq, ilmiy tadqiqot, normativ-huquqiy hujjatlar, innovatsiya, qonun ijodkorligi, huquqiy tartibga solish, samaradorlik, huquqiy islohotlar

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы эффективного внедрения результатов научных исследований в сфере права в содержание нормативно-правовых актов. Освещаются инновационные механизмы совершенствования правотворческого процесса, интеграции научно обоснованных подходов в систему правового регулирования и повышения эффективности государственного управления. Также рассматриваются теоретические и практические аспекты укрепления взаимосвязи между научными исследованиями и правоприменительной деятельностью.

Ключавые слова: право, научное исследование, нормативно-правовые акты, инновации, правотворчество, правовое регулирование, эффективность, правовые реформы

Annotation. This article examines the effective implementation of scientific research results in the field of law into normative legal documents. It highlights innovative mechanisms for improving the law-making process, integrating evidence-based approaches into the legal regulation system, and increasing the efficiency of public administration. The paper also explores theoretical and practical aspects of strengthening the connection between academic research and legal practice.

Key words: law, scientific research, normative legal documents, innovation, law-making, legal regulation, efficiency, legal reforms

Kirish

Bugungi kunda jamiyat hayoti juda tez o‘zgarib bormoqda. Texnologiyalar rivojlanmoqda, ijtimoiy munosabatlar murakkablashmoqda va davlat boshqaruvida yangi yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Bunday sharoitda huquq sohasi ham zamon bilan hamnafas bo‘lishi zarur. Qonunlar faqatgina qog‘ozda qolib ketmasligi, balki real hayotdagi muammolarni hal qila olishi uchun ular ilmiy asoslangan bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Bu borada M.A. Axmedshayeva normativ-huquqiy hujjat loyihisini tayyorlashda jamoatchilik, jumladan, ilmiy jamoatchilik fikrini o‘rganish lozimligi, Q.Q. Abdullayev normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ilmiynazariy jihatdan lozim darajada ta‘minlash kerakligi, Sh.N. Berdiyarov normativ-huquqiy hujjat loyihalari konsepsiyasida huquqshunos olimlar va boshqa mutaxassislar takliflarining sharhi keltirilishi haqida ta‘kidlashgan.

Mazkur mavzu aynan ilm bilan amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish, yangi innovatsion mexanizmlar orqali qonun ijodkorligini takomillashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Chunki kuchli huquqiy tizim - bu nafaqat ko‘p qonunlar, balki puxta o‘ylangan, ilmiy asoslangan va jamiyat ehtiyojiga mos qonunlar mavjud bo‘lishidir.

Ilmiy tadqiqotlar huquq sohasida yangi bilimlar, nazariy yondashuvlar, amaliy tavsiyalar va konseptual g‘oyalarni shakllantiradi. Biroq ushbu ilmiy natijalar amaliyotga joriy etilmas ekan, ular faqat nazariy doirada qolib ketadi. Normativ-huquqiy hujjatlar esa jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vosita bo‘lib, ilmiy ishlanmalarni real hayotga tatbiq etishning eng muhim platformasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy natijalarni qonunchilikka integratsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy huquqiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Ilmiy tadqiqotlar huquqiy normalarning sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi, chunki ular muammolarni chuqur tahlil qilish, statistik ma’lumotlarga tayangan holda xulosalar chiqarish va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish imkonini beradi. Bunday yondashuv normativ-huquqiy hujjatlarning puxtaligini, izchilligini hamda uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

Ayniqsa, normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ilmiy muassasalar, tahliliy markazlar va mustaqil ekspertlarni jalb etish mexanizmi qonun ijodkorligi sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bu nafaqat huquqiy aniqlikni kuchaytiradi, balki qabul qilinayotgan qarorlarning ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo‘lishini ham ta’minlaydi.

Huquq - bu davlat tomonidan himoya qilinadigan, o‘zida tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy xulq-atvor qoidalari yig‘indisi .

Shuningdek, u insonlar nima qilishi mumkin, nima qilmasligi kerakligini belgilab beradigan qonun-qoidalar majmui. U jamiyatda tartib-intizomni saqlash, adolatni ta’minlash va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish uchun xizmat qiladi.

Y. Kammerxofer norma ijodkorligi jarayonida olimlarning ishtirokiga to‘xtalib o‘tib, bu bo‘yicha ikki yondashuvni qayd etadi: birinchidan, olimlarning xalqaro normalarni ishlab chiqishdagi ta’siri faktik yoki empirik bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning milliy norma ijodkorligida vakolatga ega emasligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, ilmiy tahlillar, statistika va xalqaro tajribalar inobatga olinadi, bu esa qonunlarning amaliyotga mos va ilmiy asoslangan bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, iqtisodiyot yoki ijtimoiy sohada yangi qonun loyihasi ishlab chiqilayotganda ilmiy izlanishlar natijalari yordamida uning samaradorligi oldindan baholanadi, va bu natijalar qonun loyihasiga kiritiladi. Shu tarzda, qonunlar nafaqat huquqiy normalar sifatida, balki jamiyatdagi real vaziyatga mos amaliy vosita sifatida shakllanadi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqot natijalarini normativ-huquqiy hujjatlarga tatbiq etishda bir qator innovatsion mexanizmlar qo‘llanilmoqda. Elektron tizimlar va platformalar yordamida hujjatlarni muhokama qilish, raqamli tahlillar va ilmiy ekspertizalar orqali qonun loyihalarini baholash, mutaxassislar va jamoatchilik fikrini tizimli ravishda hisobga olish, shuningdek, xalqaro tajriba va best-practice metodlarni qo‘llash - bularning barchasi huquqiy innovatsiyani kuchaytiradi. Ushbu mexanizmlar qonun ijodkorligini tezlashtiradi, hujjatlar sifatini oshiradi va ularni amaliyotga moslashtiradi.

Bundan tashqari, ilmiy - huquqiy ekspertizalar institutlari davlat organlari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qilib, qonunlar sifatini oshirishga xizmat qiladi, bu esa huquqiy tizimning barqarorligini ta’minlaydi.

Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashucha, “Endi Senat qonunlarni muhokama qilishda yangicha mexanizmlarni joriy etishi zarur...”.

Prezidentimizning yuqoridagi gapi shuni anglatadiki, qonunlarimizni ishlab chiqish va muhokama qilish jarayoni endilikda **faqat an’anaviy amaliyotga tayangan holda emas, balki zamonaviy, ilmiy asoslangan va innovatsion yondashuvlarga tayangan holda** amalga oshirilishi kerak.

Yana bir muhim mexanizm - bu normativ-huquqiy eksperiment institutidir. Ushbu yondashuv orqali yangi huquqiy g‘oyalar yoki ilmiy tavsiyalar avval kichik hudud yoki sohada sinov tariqasida joriy etiladi, natijalari o‘rganiladi va shundan keyin umumdavlat miqyosida tatbiq etiladi. Bu usul ilmiy natijalarning amaliy samaradorligini aniqlash, xatoliklarni oldindan bartaraf etish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, huquq ijodkorligi jarayonida monitoring va baholash tizimini yo‘lga qo‘yish ham innovatsion mexanizmlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy ta’siri muntazam ravishda ilmiy asosda o‘rganilib borilishi, statistik tahlillar, sotsiologik so‘rovlar va ekspert xulosalari orqali takomillashtirilishi lozim. Bu esa qonunchilikning “tirik mexanizm” sifatida doimiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta’minlash tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta’minlash - bu normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihalarini ishlab chiqishda ilmiy tadqiqotlar, ilm-fan yutuqlari, ilmiy tahlillar natijalaridan foydalanish jarayonidir”.

“Norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta’minlash” tushunchasi qonun ijodkorligining sifat va samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Mazkur jarayonda ilmiy

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

tadqiqotlar, tahliliy ma’lumotlar va ilm-fan yutuqlaridan foydalanish normativ-huquqiy hujjatlarning puxta, izchil hamda amaliy ehtiyojlarga mos bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa qabul qilinayotgan huquqiy normalarning tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan, dalillarga tayangan holda shakllanishiga xizmat qiladi.

Natijada qonunchilik tizimida aniqlik, barqarorlik va samaradorlik kuchayadi, huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyat va bo‘shliqlar kamayadi. Shu bois ilmiy axborot bilan ta’minlangan norma ijodkorligi zamonaviy huquqiy davlat rivojining zarur sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, huquqiy innovatsiyalarni tatbiq etishda kadrlar salohiyati ham muhim omil hisoblanadi. Huquqshunoslarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, ularni zamonaviy tadqiqot metodologiyasi, raqamli texnologiyalar va tahliliy vositalar bilan qurollantirish normativ-huquqiy ijodkorlik sifatini oshiradi. Malaka oshirish kurslari, ilmiy-amaliy seminarlar va xalqaro tajriba almashuv dasturlari bu borada samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, huquq sohasida ilmiy tadqiqot natijalarini normativ-huquqiy hujjatlarga tatbiq etishning innovatsion mexanizmlari huquqiy davlat barpo etish, samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish va jamiyat ehtiyojlariga mos qonunchilik tizimini shakllantirishning muhim omilidir. Ilmiy yondashuv, raqamli texnologiyalar, ekspertiza tizimi, eksperiment instituti va monitoring mexanizmlarining uyg‘unlashuvi natijasida qonunchilik jarayoni yanada puxta, zamonaviy va ijtimoiy manfaatlariga xizmat qiladigan darajaga ko‘tariladi. Natijada huquq nafaqat tartibga soluvchi vosita, balki innovatsion taraqqiyotning kuchli drayveriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedshayeva M.A. Davlat hokimiyati tizimida ijro hokimiyati [Executive power in the system of state power]. Doctor’s degree dissertation. 12.00.01. Tashkent, TSUL, 2010, 273 p.
2. Abdullayev Q.Q. O‘zbekistonda qonun ijodkorligini takomillashtirish muammolari [Problems of improving law-making in Uzbekistan]. Tashkent, TSUL, 2013, 55 p.
3. Berdiyarov Sh.N. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik texnikasi [Legislative]
4. Sh.A.SAYDULLAYEV Davlat va huquq nazariyasi.
5. Kammerhofer J. Law-making by scholarship? The dark side of 21st century international legal ‘methodology’. The European Society of International Law, 2012, vol. 3, pp. 115–126.
6. Norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirishning ayrim masalalari (Sodiqov Akmal Shavkat o‘g‘li, Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida dotsenti yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori)